

**SURXONDARYO TURKUM DOSTONLARI FRAZELOGIYASINING
TEMATIK VA SEMANTIK KO'LAMI**

Ahmedov Hakim Yarashevich,
Termiz davlat universiteti, f.f.d. PhD
hakim83@uqituv.chi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo turkum dostonlarida uchraydigan frazeologik birliklarning tematik va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda doston matnlaridagi barqaror iboralar, ularning mazmuniy qatlamlari hamda xalqning tarixiy-madaniy qarashlari bilan bog'liqligi yoritiladi. Frazeologik birliklarning tematik guruhlari aniqlanib, ularning semantik ko'lami va badiiy tasvir vositasi sifatidagi ahamiyati ko'rsatib beriladi. Shuningdek, ushbu iboralar orqali xalq og'zaki ijodi namunalarida milliy dunyoqarash, urf-odat va qadriyatlarning aks etishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari Surxondaryo dostonlari tilini o'rganish, ularning badiiy-uslubiy xususiyatlarini aniqlash hamda o'zbek frazeologiyasini boyitish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Surxondaryo turkum dostonlari, frazeologiya, frazeologik birliklar, tematik guruhlar, semantik ko'lam, xalq og'zaki ijodi, epik matn, milliy dunyoqarash, badiiy ifoda vositalari, o'zbek tilshunosligi.

Аннотация. В данной статье анализируются тематические и семантические особенности фразеологических единиц, встречающихся в эпических произведениях сурхандарьинского цикла. В исследовании рассматриваются устойчивые выражения в текстах дастанов, их смысловые слои и связь с историко-культурными представлениями народа. Определяются тематические группы фразеологических единиц, раскрывается их семантический диапазон и роль как художественного средства выразительности. Также научно обосновывается отражение национального мировоззрения, традиций и ценностей народа через данные выражения в образцах устного народного творчества. Результаты исследования имеют важное значение для изучения языка сурхандарьинских дастанов, выявления их художественно-стилистических особенностей и дальнейшего развития узбекской фразеологии.

Ключевые слова: Дастаны сурхандарьинского цикла, фразеология, фразеологические единицы, тематические группы, семантический диапазон, устное народное творчество, эпический текст, национальное мировоззрение, художественные средства выразительности, узбекское языкознание.

Annotation. This article analyzes the thematic and semantic features of phraseological units found in the Surkhandarya cycle of epic narratives. The study examines stable expressions used in the texts of these epics, their semantic layers, and their connection with the historical and cultural worldview of the people. The thematic groups of phraseological units are identified, and their semantic scope and artistic function as expressive means are revealed. In addition, the article highlights how national traditions, customs, and values are reflected through these expressions in samples of oral folk literature. The results of the research are important for studying the language of Surkhandarya epics, identifying their artistic and stylistic characteristics, and contributing to the development of Uzbek phraseology.

Keywords: Surkhandarya cycle epics, phraseology, phraseological units, thematic groups, semantic scope, oral folk literature, epic text, national worldview, artistic expressive means, Uzbek linguistics.

Kirish. Dunyo tilshunosligida frazeologik birliklarni ma'lum bir manba va inson faoliyati sohasi bo'yicha ajratish frazeologik birliklarni tasniflashning an'anaviy usuli hisoblanadi. Zamonaviy frazeologiyada frazeologik birliklarni tematik, semantik va etimologik tamoyillar bo'yicha tasniflash ham mavjud.

Adabiyotlar tahlili. Tasniflashning tematik tamoyillari bir qator G'arb va rus tilshunoslarining, jumladan, L.P. Smit, V.H. Kollinz, P.P. Litvinov va boshqalarning asarlarida asosiy o'rin tutadi.

Qadimiy odamlar dunyoni bilish haqidagi tasavvurlarini o'zida jamlagan, uning dunyoqarashini ifodalab va avlodlarga yetkazishga mo'ljallangan miflarning ommalashib, asosan jonli og'zaki ijro orqali, ya'ni so'z vositasida hikoya qilib berilgan. Ya'ni, mif – afsona janrining badiiy shakli asosida bayon etilgan. Ma'lum bir epik asarda bir qancha miflar syujet mantiq zanjiriga ko'ra bayon etiladi hamda u asarning mifologik strukturasi tashkil etadi. Miflarning dostonidagi tematik strukturasi ham miflarning badiiy tamsil sifatida anglatuvchi ma'nolari bilan bog'liq. Asotirlarning qahramonlik, ishqiy, satirik, majoziy kabi turlari dostonlarda miflarning boy tematik strukturaga ega ekanligini ko'rsatadi. Xalq dostonlari tiliga oid frazeologizmlarga ham ana shu ikki nuqtayi nazardan yondashish muhimdir.

Epik asarlar tilida uchraydigan lug'aviy birliklar fonetik, grammatik va leksik jihatdangina emas, balki mavzu ko'lamining kengligi, atrof borliq, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy sohalarga oid lug'aviy birliklarning qamrovi bilan ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, Surxondaryo turkum dostonlarida turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek millatiga xos milliylik, an'ana va urf-odatlar, real turmush tarzini ifodalovchi lingvistik birliklarning ko'pligi, barqaror birikmalarning faol qo'llanishi bilan boshqa dostonlardan ajralib turadi.

Ta'kidlash kerakki, folklor asarlarida uchraydigan frazeologik birliklarning aksariyati inson fiziologik faoliyati va uning ruhiy holati, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy olamdagi o'rni, borliq haqidagi tasavvurlari bilan bog'liq holda shakllanadi. Bu ancha qadimiy, ijtimoiy-tarixiy jarayon bo'lib, xalq og'zaki ijodiyotida uchraydigan frazeologik birliklarni semantirk-struktur, etimologik jihatdan lingvistik tahlil qilish hozirgi leksik qatlamdagi barqaror birliklar haqida aniq ilmiy xulosalar berishga asos bo'ladi.

Muhokama. O'zbek tilida shaxs bilan bog'liq bo'lgan va shaxs bilan bog'liq bo'lmagan frazeologizmlar shakliy va mazmuniy strukturasi o'xshash bo'lishi mumkin. Shaxs bilan bog'liq bo'lgan frazeologik birliklar uchun shaxslik belgisi integral belgi bo'ladi va ularni modellashtirish, semantik-tematik guruhlariga ajratish uchun asos bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, frazeologik birliklarning tarkibiy shakllanishi tilning grammatik qurilishi va so'z-komponentlarining distributiv aloqalari ularning o'zaro bog'lanish qonuniyatlariga asoslanadi. Binobarin, Xalq dostonlarida uchraydigan frazeologizmlarning tarkibiy komponentlari frazeologik ma'no ifodalashda muhim ahamiyatga ega ekanini kuzatish mumkin. Xalq dostonlaridagi frazeologik birliklarning tarkibiy qismlari munosabati va unda yetakchi funksiya bajaradigan komponentlar milliy tilning grammatik, semantik qonuniyatlari tarixi hamda xalqning ongi, tafakkuri, borliq haqidagi qarashlarini o'zida aks ettiradi. Ularning shakllanishi turli davrlarda sodir bo'ladi va turli ijtimoiy- hayotiy

voqyealar, tasavvurlar, kishilar hayotiy tajribalarining umumiyashuvi asosida ro'y beradi. Xalq dostonlari tilida qo'llanilgan frazeologik birliklarni tarixiy jihatdan, ya'ni frazeologik shakllanish omillarini o'rganish frazeologik ilm oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Dostonlar tilidagi frazeologizmlar faqat lisoniy hodisa bo'lmay, ular ijtimoiy-tarixiy davrning mahsuli hisoblanadi. Shu ma'noda frazeologizmlarning shakllanish xususiyatlari tadqiq etilganda, ularni tarixiylik jihatdan o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. O'zbek tili frazeologiyasi o'ziga xos tarixiy taraqqiyot bosqichlariga ega. Dastlabki bosqichda, tabiiyki, frazeologizmlar tarkibidagi leksemalar o'zbek tili leksikasining o'z mulkidan iborat bo'lgan. Davrlar o'tishi bilan tilimizga fors-tojik hamda arab tillaridan ko'plab leksemalar o'zlashdiki, ular frazeologizmlar tarkibida ham o'z aksini topdi. Frazeologik tarkib ham leksik tarkib kabi rivojlanishi va boyishi, shuningdek, o'zgarish jarayonida tilning ichki qonuniyatlariga amal qiladi. Frazeologizmlarning hosil bo'lishi leksika bilan bog'liq. Leksik fond qay darajada so'zlar bilan boyib borsa, frazeologik fond ham shunchalik boyib boraveradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki dostonlar tilidagi frazeologizmlarning paydo bo'lishi va shakllanishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Doston tilidagi frazeologizmlarning til birligi sifatida murakkabligi, uning ma'nan yaxlitligi bilan alohida shakllangan formasi o'rtasidagi ziddiyatning mavjudligi va bir biriga mos emasligi, iboradagi dolzarb va etimologik ma'nolar nomuvofiqligi ularning nutq jarayonida qo'llanishini, frazeologizmlarning etimologik asosini aniqlashni ham murakkablashtiradi. Xalq o'gzaki ijodi tilidagi frazeologik manbalarini o'rganishda, ularni leksik-semantik guruhlariga ajratishda leksikaga nisbatan muammoli o'rinlar, hatto hal qilinishi qiyin kechadigan munozarali qirralarni namoyon etadi. Shulardan biri frazeologizmlarning qatlamlari masalasidir. Qatlamlanuvchi frazeologizmlar genetik jihatdan turli manbalarga, tarixan esa turli davrlarga mansub bo'ladi. Tilshunos olim E.A.Begmatov Hozirgi o'zbek tilining leksik qatlamlari kitobida leksemalarni "genetik jihatdan ikki manbaga mansubligini ta'kidlaydi: a) o'sha tilning o'ziniki bo'lgan so'zlar; b) bu tilga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar.

Natija. Surxondaryo turkum dostonlarida qo'llanilgan frazeologik birliklar yuqorida ta'kidlangan har ikkala jihatga ham mansubligini va dostonlar tilida qo'llanilgan frazemalar turkiy, fors-tojik, arab va boshqa tillari ta'sirida shakllanganligini ta'kidlashimiz lozim. Masalan: *Shashti qaytmoq, girdi kapalak bo'lmoq, qiyo boqmoq, hang-mang bo'lmoq, nazar solmoq. Zil tortmoq va.h.k.*

Dostonlar tilida uchraydigan barqaror birikmalarni tematik tahlil qilish ajdodlar tafakkuri, ularning qiziqishlari, ijtimoiy munosabatlari, jamiyat va olam haqidagi qarashlarini o'rganish imkonini beradi. Til egasining ijtimoiy qarashlari leksik birliklar orasida frazeologizmlarda asl holicha saqlanib qolgan. Leksikonimizda fan-texnika taraqqiyoti natijasida yangi leksemalar paydo bo'laverishi, neologizmlar kirib kelaverishi mumkin. Biroq xalq dostonlaridagi frazeologik birliklar tarkibi o'zgarmaydi. semantik xususiyatlari ham deyarli o'zgarmasdir. Xalq dostonlari qadim-qadimdan xalq og'zaki

tilidan oziqlanib keladi. Bu an'ana xalq dostonlarini jonli so'zlashuv tiliga yaqinlashtirib, oddiy aholi hayotiga yaqinlashtiradi. Shu bois ham og'izdan og'izga o'tib kelayotgan dostonlar oddiy xalq hayotini o'zida emotsional-ekspressiv voqealar tasviri asosida aks ettiradi. Jonli xalq tili ko'chimlar, metaforik o'xshatishlar, real hayot tasviriga asoslangan barqaror birikmalarning qo'llanishi bilan ham ahamiyatli.

Xalq dostonlari tilidagi frazeologik birliklar kontekstda turli semantik funktsiyalarni bajarib keladi. Dostonlar tilidagi frazemalar ma'lum bir obraz asosida quriladi va shu obrazni gavdalandirishda har xil predmet, voqea- hodisa, tasavvurlarning nomlaridan foydalaniladi. Dostonlarda frazeologizmlarning shakllanish xususiyatlari leksemalarning shakllanishidan farqlanadi. Ularning shakllanishi turli davrlarda sodir bo'ladi va turli ijtimoiy- hayotiy voqyealar, tasavvurlar, kishilar hayotiy tajribalarining umumiy lashuvi asosida ro'y beradi. Frazeologizm ma'lum bir obraz asosida quriladi va shu obrazni gavdalandirishda har xil predmet, voqyea-hodisa, tasavvurlarning nomlaridan foydalaniladi. Frazeologizmlarni shakllanish doirasi jihatidan o'rganish alohida ahamiyatga ega. Frazeologizmlar asosan shaxs tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, shaxsning u yoki bu tarzda tasavvurlari, xatti- arakatlari, fiziologik hamda psixik holatlarini ifodalaydi. Shuningdek, frazeologizmlar hayvonlar obrazini gavdalandirish va muayyan kasb-korga bog'liqligi jihatidan ham shakllanadi. Frazeologizmlarning shakllanish xususiyatlari leksemalarning shakllanishidan farqlanadi. Ularning shakllanishi turli davrlarda sodir bo'ladi va turli ijtimoiy- hayotiy voqyealar, tasavvurlar, kishilar hayotiy tajribalarining umumiy lashuvi asosida ro'y beradi. Frazeologizm ma'lum bir obraz asosida quriladi va shu obrazni gavdalandirishda har xil predmet, voqyea- hodisa, tasavvurlarning nomlaridan foydalaniladi. Dostonlar frazeologizmlarning shakllanish doirasi jihatlarini o'rganish alohida ahamiyatga ega. Frazeologizmlar asosan shaxs tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, shaxsning u yoki bu tarzda tasavvurlari, xatti- arakatlari, fiziologik hamda psixik holatlarini ifodalaydi. Doston ijro etuvchi baxshi umumiste'moldagi frazeologizmlardan o'rinli va oqilona foydalangan, chunki ular har bir so'z va ta'birni, maqol va matalni yaxshi bilgan. O'zbek xalq dostonlarining badiiy tilida umumxalq uchun tushunarli frazeologik birliklar, balki oddiy, jonli so'zlashuv tiliga, faqat muayyan hududlargagina xos bo'lgan dialektal frazeologik birliklar ham anchagina. Ushbu holat baxshining yashash joyi, unga oid bo'lgan sheva xususiyatlaridan kelib chiqqanligidan dalolatdir. Masalan, Surxondaryo dialektiga xos bo'lgan juda ko'plab frazeologik birliklar borki, bu dostonning badiiy qiymatini oshirib, uning badiiy asar sifatidagi jozibasini oshirgan. Fanda har bir lahja va shevaning o'ziga xos iboralar tizimi mavjudligi, ular aynan dialektal so'zlar kabi hududiy lahja yoki sheva leksik boyligining parchasi ekanligi haqida ko'p yozilgan. Binobarin, doston tilida Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"ga kiritilmagan dialektal frazeologizmlarning mavjudligi aniqlanib, tahlilga tortildi. Masalan: "*shaytonning shobiriga tushmoq*", "*suyaklari shovshamoq*", "*tobdan tushmoq*", "*shovqin shobir bo'lmoq*", "*ko'kayi kesilmoq*", "oltmish ikki tomiri

shovshmoq”: –*Barchinning ko‘ngli buzilib, oltmish ikki tomiri shovshab, ot ustida borardi* (77). Bu yerda “*oltmish ikki tomiri shovshamoq*” – iborasi xafa bo‘lish, arazlash semasida qo‘llangan. Barcha dinlarda shu jumladan islom dinida insonning dinga, Allohga e‘tiqodi qay darajada ekanligi, Alloh tomonidan buyurilgan amallarning qay darajada bajarilishi va amal qilinishi bilan belgilanadi.

Qo‘l bermoq (304), *nazr bermoq* (28), *qo‘y aytmoq* (47), *sadaqa qilmoq* (231), *qabriga bosh urmoq* (243), *iymon keltirmoq* (227), *tilovat qilmoq* (321), *nikohini qiymoq*, *duo olmoq* (34), *duo ketmoq* (454), *zakot bermoq* (57), *qiyomat bo‘lmoq* (74), *iymonini yutmoq* (298), *savob olmoq* (307), *namozga boshini qo‘ymoq* (332).

Xulosa. Doston tilida tadqiq qilingan turg‘un birikmalarga nazar tashlasak, dastavval, xalq baxshisining doston syujeti bilan bevosita aloqador fantastik voqea-hodisalarga, ularda bevosita qatnashgan epik qahramonlarga, ularning favqulodda tushib qolgan xilma-xil xatti-harakatiga, muayyan epik o‘rin va makonga, sharoit va vazifalarga mos ravishda xalqona frazeologik iboralardan unumli, ayni chog‘da, mohirona foydalana olganligini kuzatamiz. Natijada bunday so‘zlar tinglovchi yoki kitobxon – o‘quvchining tasavvurlarini yanada faollashtirishga, doston epik qahramonlarining ba‘zi bir ijobiy yoxud salbiy xatti-harakatlariga nisbatan munosabatini tubdan o‘zgartirishga va shu asosda shakllantirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Маматов А., Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик-прагматик тадқиқи. –Тошкент, 2018. – Б. 35.
2. Рашидова У.М. Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Самарқанд, 2018.-Б. 48.
3. А.Э. Маматов. Ўзбек тили фразеологияси. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2019.-32 Б.
4. Бегматов Э.А. Ҳозирги Ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари, 48–бет. Ўзбекистон ССР "Фан нашриёти" 1985-й